

**OILADA TARBIYAVIY YONDASHUVLARNING BOLA RUHIYATIGA
SALBIY TA'SIRLARI**

*Guliston davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida
o'qituvchisi Ergashev Yusuf*

Anotatsiya: Ushbu maqola oilada tarbiyaviy yondashuvlarning bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etuvchi salbiy omillar hamda tarbiyaning shaxs kamolotiga ta'siri haqida bo'lib. Oilada shunday vaziyatlar bo'ladiki, ota-ona va farzandlar qaysi yosh davrida bo'lishidan qat'iy nazar o'z farzandlari nimani istashlarini hisobga olmaydilar. Buning oqibatida kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Bu esa tarbiya jarayoning ota-onalar uchun yanada qiyinlashib, murakkablashib borishga sabab bo'ladi, bugungi kundagi asosiy e'tiborimizni qaratayotgan oila tarbiyasidagi obyektiv va subyektiv omillar haqida bahs yuritadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, giperproteksiya, o'ta kuchli axloqiy ma'suliyat, oilaviy diskriminatsiya, ziddiyatli tarbiya, ruhiyat.

Kirish. Ruhiyat-bu har bir insonni boshqarib turadigan eng katta kuchdir. Biz butun tanamizni ong va ruhiyatsiz keraksiz narsa desak ham bo'ladi. Shuning uchun har bir inson yaratilibdiki, u bilan o'ziga xos xususiyatlari ham shakllangan bo'ladi. Inson shakllanishi jamiyatdagi barcha narsalarga bog'liq. Ruhiyat juda keng ma'noga ega, uni ruhiy kechinmalar yig'indisi, psixika deb atasak ham bo'ladi. Psixika shakllanishida ta'lim-tarbiya asosiy o'rin egallaydi. Lekin har bir inson boshqa insonlar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatar ekan, biz atrofimizdagilarga salbiy va ijobiy ta'sir qilayotgan omillarni bilishimiz lozim. Ayniqsa, eng asosiysi o'sib kelayotgan har qanday bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib qo'yish juda zararli bo'lib, bir shaxsning dunyoqarashi, fikrini o'zgartirib, yomon holatlarga duch kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili: Ruhiyatiga ta'sir qiladigan eng kuchli narsa bu-so'z. Shoir A.Qahhor aytganidek "So'z – atomdan kuchli". Inson ruhiyatini ko'taradigan ham, ruhiyatini sindiradigan narsa ham -so'z. Shuning uchun tilga ehtiyot bo'lish haqida ko'plab donishmandlarimiz Bu o'tgan. Lekin bilamiz bunga to'liq amal qilish qiyin. Chunki inson o'zi ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda atrofdagilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buni ko'rsatgichda ixtiyorsiz ravishda salbiy ta'sir qilish ko'proq uchraydi. Ayniqsa, bolalar qilayotgan muomalada tabiiy holga aylanib qolgan. Ya'ni kattalar bolarni har safar tushunmagan paytlarda ularning ruhiyati sinib boraveradi. Natijada esa bola kamgap, qo'rqqoq, irodasiz bo'lib, tashqi muhitdan ajralib qolishi mumkin. Bu esa ularning nutqi to'liq shakllanishiga to'sqinlik qiladi va nutqida, ong shakllanishida kamchiliklar keltirib chiqaradi. Keyin bunday bolalar boshqacha muhitga ya'ni maxsus

muassasalarga o'tkazilib, chuqur ta'limtarbiya beriladi. Har qanday inson uchun bir muhitdan boshqa bir muhitga o'tishi, ko'nikishi qiyin va bu ko'pchilikni hayotiga har xil ta'sir qiladi. Endi o'ylab ko'rsak, biz shunday so'g'lom insonni dunyoga keltirib tashqi salbiy ta'sirlardan uni o'zgarib qolishiga sababchi bo'lib, yana bu bolani qiynab boshqa muhitga tashab qo'ysak. Buning natijasi har xil bo'lishi mumkin: ijobiy va salbiy. Oldindan har birimiz harakat qilib salbiy omillardan cheklansak, bolalar ruhiyatiga bosim qo'ymasak, unda katta qobiliyatlarini rivojlanishini ko'rish mumkin. Shuningdek, har birimiz umuman insonlar va bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni bilib qo'yishimiz va cheklashimiz kerak.

Bu haqida hattoki muqaddas kitob Qur'onda ham inson ruhiyatini sindirish, qalbiga ozor yetkazish eng katta gunoh ekanligi aytib o'tilgan. Bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan eng kuchli omillar quyidagilar bo'lishi mumkin.

- Qo'pol so'z
- Ularga nisbatan ishonchsizlik
- Sababsiz haqoratlar
- Bolalar va ularning atrofida qilargalarga nisbatan adolatsizlik
- Ota-onasining ajralishi
- Telefon yoki televizor orqali ko'rayotgan qo'rqinchli narsalar

Muhokama: Bundan tashqari juda ko'p sabablar keltirish mumkin, lekin oldin shu muammolarga chek qo'ysak keyingi sabablar ham kelib chiqmaydi.

1. Qo'pol so'z – bolalarga nisbatan doimiy va tabiiy holatga aylanib qolgan. Ularni tarbiyalashda shu narsa orqali boshqarish mumkin deb, bolarni o'z erkidan mahrum qilib, ruhiyatini sindiramiz. Xuddi bolalarga aytiladigan "O'g'zingni yum" "Jim o'tir" deyilgan so'zlarni sizga ham hozir kimdir ishlatsa qanday holga tushasiz? Xafa bo'lasiz, albatta. Bolalar qanchalik quvnoq, ko'rinmasin har bir qo'pol so'z ular ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kelajagimizni barbod qilmaslik uchun bolalardan vaqtni ayamay, nimaga ko'p gapiryotganini, maqsadi nima ekanligini ularni tinglab bilib olishimiz va har bir narsani yaxshi so'z bilan qayta- qayta tushuntiraverish kerak. Bolalar qiziquvchan paytda har qanday ishni bajarib ko'rishga urinadi, ammo bu ishni to'g'ri, noto'g'riligini tushunmaydi. Shu paytda biz ularga toqatsizlanib qattiq bosim berib qo'ysak, bolasa har qanday ishni bajarishga ishtiyoqi so'nadi va ularni mehnatga o'rgatish qiyin bo'lib qoladi.

2. Bolalarning ko'p yolg'on gapirishining asl sababi ularga bo'lgan qaysidir ishonchsizlikdan kelib chiqqan. Har qanday holatda ham ularga bo'lgan ishonch sezilib turishi shart. Chunki qachondir bolarning ishonch bilan aytayotganlarini, yolg'on deb qarash bo'lib turadi. Bu esa uning ruhiyatiga og'ir ta'sir qiladi.

3. O'zimiz sezmagan holda bolalarni sababsiz haqorat qilamiz. Keyin bundan afsuslanganimizni foydasi yo'q. Bu holatni shu zahoti oldini olishimiz va ularni aybdor qilmaganimizni tushuntirish kerak. Sababsiz haqoratlangan bola tarbiyachiga bo'lgan

ishonchini yo‘qotadi va o‘zini to‘g‘ri deb bilgan ishni qiladi. Adolatsizlik deyarli har birimizga duch kelgan holat. Bu holatni ikki tarafi bor: salbiy va ijobiy. Chunki biz bolani noto‘g‘ri baholagan paytda, ular haqiqat uchun harakat qilib oldinga intiladi yoki umuman ruhiyatini tushurib qiziqishlarini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Shunday ekan biz barcha bolalarni teng huquqli ekanligini anglatish va qayta-qayta takrorlash kerak.

4. Ota-onaning ajralishi bola ruhiyatining eng og‘riqli qismi bo‘lib, har tamonlama bolaga ta’sir ko‘rsatib, uni o‘zgartirib qo‘yadi. Chunki endi hayotni o‘rganayotgan, moslashayotgan bolaning ota-onasi ajralishi orqali umuman boshqacha muhitga tushib qoladi va bunday sharoitga ham moslashish uchun bola kata qiyinchilikka duch keladi, keyinchalik esa ruhiyatda potologik holatlar yuzaga kelishi mumkin. Buning oldini olish har bir insonning burchi hisoblanadi.

5. Hozirgi davrda ta’lim bilan birgalikda texnika ham rivojlanib bormoqda.

Katta-yu kichik birgalikda telefon, kompyuter va boshqa texnikalardan keng foydalanib, zararli tomonlari ham ko‘zga tashlanib qoldi. Misol uchun hozirgi bolalar telefon barcha funksiyalarini tushunib, hayotda o‘z vazifalarini anglashdan qolib ketmoqda, nutqi sustlashmoqda, ko‘z kasalliklari kelib chiqmoqda va boshqa salbiy omillar yuzaga kelyapti. Biz bolalarga me’yorda qo‘llashni o‘rgatish uchun avval o‘zimiz ular uchun namuna bo‘lishimiz kerak. Shu orqali katta natijaga erishish mumkin. Shu o‘rinda muqaddas dargoh oliadagi tarbiya haqida so‘z yuritsak, Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan, o‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarni odobli, ma’naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi.

Oila tarbiyasi —oilada farzandlarning ota-ona yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxsla tomonidan amalga oshiriladigan, farzandlar kamolida muhim ahamiyat kasb etadigan jarayon hisoblanadi. Yosh avlodning har tomonlama kamolga erishishida oila tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Oilaning moddiy ta’minoti, farovonligi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog‘lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar obyektiv omillar sirasiga kirsam, oiladagi shaxslararo do‘stona

munosabatlar, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, ma'naviy jihatdan komillikka yetganligi, ularning qiziqishi va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy turmushni tartibga solish borasidagi o'zaro moddiy ko'mak, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar subyektiv omillar sirasiga kiradi. Hozirgi shiddat bilan taraqqiy etayotgan mamlakatimizning qay darajada yuksalishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga bevosita bog'liq sanaladi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya asosiy ro'lni egallaydi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch —oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat zanjiri, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va hokazolar.

Giperproteksiya -ota-ona tomonidan bola shaxsining barcha xohish va ehtiyojlarini ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning archa istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini e'tiborga olmaslik va to'g'irlamaslikka qaratilgan harakatlar yig'indisidir. Farzandi uchun "barchasini muhayyo qiladiganlar" odatda o'zlari bilmagan holda ularga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda barcha turdagi mehnat faoliyatini rad etishga intilish, ko'pchilikning ichida o'zgalar fikrini eshitnaslik va o'zini ustun qo'yish, hayotning past-balandliklarida o'zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo'lib o'sadi. Ayniqsa, bola o'smirlik yoshiga yetganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma xohishlari qondirilishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladigan, lekin psixologik jihatdan, aslida unda bunday ifatlar mavjud bo'lmaydi.

Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro'yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola ko'p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi. G'amho'rlikdan tub ma'noda farq qiladigan giperproteksiya -bunda erkalatishdan ko'ra oiladagi katta shaxslar tomonidan bola shaxsining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta'qiqlar va to'siqlar ota-ona tomonidan takror aytiladigan „mumkin emas“ kabi iboralarning bisyorligi bilan namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda voyaga yetganbola odatda shaxsiy fikr va dunyo qarashsiz, mustaqil qarorlar chiqarishda doimo kattalar yordamiga muhtoj bo'ladi va xarakter jihatdan salga jahli chiqadigan va doimiy norozi holdagi kayfiyatning hamrohligi, chunki u doimiy

nazoratga, o'zgalarning qarorlari asosida harakat qilishga odatlanadi: onasisiz dars tayyorlay olmaydigan, otasisiz ko'chaga chiqmaydigan, barcha ishlarida kattalarning doimiy aralashuviga muhtoj bo'ladi. O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat -bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi. Ota-ona bolasining kelajagini puxta qilishni o'ylab, uning yurish-turishi uchun o'zlarini mas'ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Masalan, "sen to'ng'ich farzandsan, ukalaringga sen qarashing kerak, bu ishlarni mustaqil qilishing kerak", kabi bir qator aslida ota-onaning vazifasiga kiruvchi mas'uliyatni bola shaxsiga yuklashdir. Oilaviy diskriminatsiya-farzand shaxsini tarbiyalashda unga doimiy ravishdagi namuna sifatidagi shaxslarni qayta-qayta ta'kidlab ko'rsatish orqali bola ongini aka-ukasi, opa-singlisi yoki ko'rsatilayotgan shaxsga nisbatan adovat ruhida tarbiyalashdir. Tarbiyaning bu kabi ko'rinishida bola shaxsining menini inobatga olmaslik va buning natijasida Bolani doimiy stress keyinchalik esa dipressiya holatigacham olib borishim mumkin.

XULOSA

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli-ziddiyatli tarbiya. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya uslublarini qo'llaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-ona bolaning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullalanadi, buvilari esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini -"hali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi", qabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini E.Eydemiller, V.Yustitskiy, N.Leongardlar o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning qibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu -bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak. Xulosa qilib aytganda, shu sanoqli narsalarni o'sib kelayotgan bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini anglagan holda, bu holatlarga chek qo'yishimiz va shu orqali bolalarda kuzatiladigan juda ko'p ruhiy kasalliklarni oldini olishga har birimiz hissa qo'shishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Xojaev va boshqalar. " Pedagogika asoslari " Toshkent, "TDIU" 2003yil.
2. Z.Mavlonova va boshqalar. " Pedagogika " Toshkent 2003 yil.
3. V.F. Matveyev. Meditsina psixologiyasi, etikasi va deontologiyasi asoslari. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 1991.

4. A.I. Shcherbakov. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., "O'qituvchi", 1991.
5. H. Uzoqov. G'oziyev. A. Tojiyev. Oila etikasi va psixologiyasi. T., "O'qituvchi", 1992.

